O‘TGAN ASR 80-YILLARIDAGI JIZZAX SHAHRINING IQTISODIY HAYOTI

D.T.Abdurasulova
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘tgan asr 80-yillarida Jizzax shaharining iqtisodiy hayoti: shaharning sanoat zonasini yuzaga kelishi, shahar atrofidagi qurilish materiallaridan unumli foydalanish uchun keramika, silikat ishlab chiqaruvchi zavod va boshqa korxonalar ishga tushirilganligi, Respublika sanoatni rivojlantirish va Jizzax viloyatidagi cho‘l zonasini o‘zlashtirish maqsadida Jizzax plastmassa quvurlari zavodi qurilishi, sanoat korxonalari qoshida turar joy binolari, bolalar bogcha-yaslilari, shifoxonalar qurilishi haqida yozilgan. Ma’muriy buyruqbozlik tizimi, ishlab chiqarishga partiyaviy rahbarlik va uning mafkuraviylashtirilishi iqtisodiyotni yuksaltirish borasidagi urinishlarni yo‘qqa chiqardi haqida aytilgan.

Kalit so‘zlar: Shahar, Sanoat korxonalari, sobiq sho‘rolar davri, akumlyator zavodi, ip-yigiruv fabrikasi, temir-beton zavodi, un kombinati, “Jizzax plastmassa” aksiyadorlik jamiyati, paxta tozalash korxonalari, ma’muriy buyruqbozlik tizimi, ishlab chiqarishga partiyaviy rahbarlik.

Sobiq sho‘rolar davrida ham Jizzax shahri viloyatning ma’muriy- madaniy markazi bo‘lishi bilan birgalikda Respublikaning eng yirik sanoat shaharlaridan biri edi. Jizzax shahrida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi o‘nlab sanoat korxonalari barpo etilgan edi. Shaharning sanoat zonasi yuzaga keldi. Jizzax viloyati tashkil topganidan ko‘p o‘tmasdan 1979 yilda akumlyator zavodi, 1981yili ip-yigiruv fabrikasi, temir-beton zavodi qurilib ishga tushirildi. O‘ninchi besh yillik mobaynida shahar sanoat korxonalarini kengaytirish uchun 121 million so‘m mablag‘ sarflandi. Shahar atrofidagi qurilish materiallaridan unumli foydalanish uchun keramika, silikat ishlab chiqaruvchi zavod va boshqa korxonalar ishga tushirildi, g‘isht zavodining ishlab chiqarish hajmi kengaytirildi. ”Uzkolxozstroyning” keramzit ishlab chiqarish eksperimental kombinati qurilishga qarashli tayyorlash uzellari shahar atrofidagi xom ashyo bilan ishlashni yaxshi yolga qo‘ydilar. O‘zbekistonlik quruvchilar estoniyalik va novosibirskliklar bilan birgalikda o‘sha vaqtda uy qurilish materiallari kombinati-silikat zavodini qurdilar. Korxona qoshida yig‘ma temir beton buyumlari uchun armatura tayyorlovchi sex ham qurilib ishga tushirildi. Kombinatda 4 ta zavod, 17 ta sex va 59 ta brigada mavjud edi. Bu erda xar yili 120 ming kub metrdan ziyod silikat, 677 kub metr temir-beton buyumlari, 180 ming kub metr keramzit, 420 ming kub metr gipsoprokat mahsulotlari tayyorlandi. Kombinat 1989 yilda quruvchilarga 165 ming

kub metr turli hil metal konstruksiya detallari, 128 ming kub metr keramzit qumi, 198 ming kvadrat gips prokat plitalari, 1506 tonna metall konstruksiyalari, 1900 tonna turli xil texnologik uskunalar etkazib berdi. Kombinatda 2 ta 150 o‘rinli oshxona, 50 o‘rinli choyxona, bufet,700 o‘rinli medisina punkti mavjud bo‘lgan. Kombinatda ishlab chiqarilgan yuqori sifatli tayyor uy komplektlari RSFSR, Qirg‘iziston, Tojikiston, va Turkmanistonga peshma-pesh jo‘natilgan[1]. Shahardagi ko‘pgina korxonalarni rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirildi, gips va gipsolitdan, keramikadan plitalar ishlab chiqarish korxonalari qurildi. Shahardagi qishloq xo‘jalik mashinalari remonti zavodi rekonstruksiya qilindi. Uysozlik kombinatining temir-beton buyumlari zavodi sug‘orish kanallari uchun qoplama pilita buyumlarini tayyorlab berdi, tom ustini yopish uchun ishlatiladigan plitalar, lotoklar va ularning jihozlari, fundament bloklari, quduqlar hamda ularni jihozlash uchun ishlatiladigan moslamalar ishlab chiqarildi. SSSR 60 yilligi nomli ip yigiruv fabrikasi birinchi bosqichi 1981 yilda ishga tushirilgan bo‘lib o‘shga davrda O‘rta Osiyoda yirik engil sanoat korxonalardan biri xisoblangan. Fabrikada turli xil trikotaj gazlamalar ishlab chiqarilgan. Fabrika sexlaridida SSSR engil sanoat minstrligiga qarashli oliy, maxsus o‘quv yurtlarini tamomlaganlar, kalava sexi boshlig‘i Tirkash Ergashev, smena masteri Sharofat Haydarova, yigiruv sexi boshlig‘i Abdulaziz Xidirov, masterlar Onaroy Sultonova, Olim Bo‘ronov,Shokir Eshnazarov singari xodimlar mexnat qilganlar.

1982 yilda un kombinati, kraxmal kombinati, go‘sht kombinati, Toshkentdagi “Yuldiz” trikotaj firmasining Jizzax filiali qurilib ishga tushirildi Shaharda sut zavodi, ustki trikotaj ishlab chiqarish birlashmasining “Moskva” kolxozidagi filialai, akkumlyator zavodi, uy jixozlarini ishlab chiqarish fabrikasi qurilib ishga tushirildi. Shaharda aholining keng iste’mol mollariga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olib paypoq fabrikasi ishga tushirildi. Shaharda badiiy kulolchilik buyumlari zavodining ishga tushirilishi aholini badiiy kulolchilik bo‘lgan talabini qondirishni ta’minladi. “Jizzax plastmassa” aksiyadorlik jamiyati plastmassa mahsulotlarini ishlab chiqaradigan korxonasi ”O‘zkimyosanoat” uyushmasi tizimida faoliyat ko‘rsatdi. Respublika sanoatni rivojlantirish va Jizzax viloyatidagi cho‘l zonasini o‘zlashtirish maqsadida 1960 yilda Jizzax plastmassa quvurlari zavodi qurilishi loyihalashtirildi. Zavod o‘zining birinchi mahsuloti- polietilin plyonkalar va mashinasozlik uchun butlovchi buyumlarni 1972 yildan boshlab ishlab chiqara boshlagan.1980 yilda zavod qayta rekonstruksiya qilindi va polietilin quvurlar ishlab chiqaradigan plastmassa zavodiga aylantirildi. Zavodning mahsulotlari uzoq Kamchatkada, Ukraina, Belorusiya, RSFSR singari respublikalarida ham uchratish mumkin edi. Trikotaj (ust kiyim, bolalar kiyimi) mahsulotlari ishlab chiqaradigan sanoat korxonasi “O‘zbekengilsanoat” davlat uyushmasi tizimida faoliyat ko‘rsatadi. Korxona 1976 yilda Toshkent “Malika” trikotaj birlashmasi filiali negizida Jizzax shahrida tashkil qilingan. 1982 yilda Jizzax trikotaj birlashmasiga aylantirilgach, uning qoshida Hamroqul Nosirov nomidagi “Marjonbuloq” tikuv fabrikasi tashkil etilgan.

Jizzax temir-beton buyumlari zavodi tom ustini yopish uchun ishlatiladigan plitalar, lotoklar va ularning jihozlari, fundament bloklari va boshqa mahsulot ishlab chiqaradigan davlat korxonasi 1980 yilda tashkil qilingan. 1985 yilga kelib O‘zbekistonda bir yarim mihgdan ortiq yirik ishlab chiqarish, ilmiy-ishlab chiqarish bor edi [2] Bu davrga kelib sanoat maxsulotlarini ishlab chiqarish ayniqsa paxtachilik extiyojlariga mo‘ljallangan tarmoqlar jadal rivojlantirildl 80-yillarning o‘rtalariga kelib ularning umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmidagi salmog‘i deyarli 75%ga etdi. Jizzax shahrida paxta tayyorlash va tozalash korxonasiga Miraziz Yoldoshev, Bahriddin Sharopov, Karim Umarov, Qayum Shodiev, Abduvali Xudoyberdiyev, Rahmatilla Bo‘stonovlar rahbarlik qilgan yillarda qayta ishlangan paxta va tola hajmi ko‘payibgina qolmay, sifati xam yaxshilandi. Korxonada bu yutuqlarni qo‘lga kiritishda katta ish tajribasiga ega bo‘lgan Gulom Abdusamatov, Omon Q’osimov, Omonxon Sulaymonov singari tovarshunoslar, Fayziqul Mamanazarov, Fayzi O‘rinboyev, T. Jo‘rayev, E. G‘oziyevlarning xizmati katta bo‘ldi. 1974 yili Jizzax viloyati tashkil topishi munosabati bilan H. Nosirov nomli jamoa xo‘jaligi hududida paxta tozalash korxonasi q’urilib, ishga tushirildi. Korxonani ishga tushirishda Abduvali Xudoyberdiyev bevosita rahbarlik qilib, 1982 yilning kuz oylariga qadar direktorlik qildi. Uning paxta tayyorlash va tozalash

[1] O’zbekiston shaharlari.Jizzax.H.Haaydarov. Toshkent 1990yil.60-61betlar
[2] Народное хозяйство Узбекской ССР. в1984г.Стат. ежегодник. 1985.-Т С.43.

korxonalaridagi uzoq yillik samarali mehnatlari inobatga olinib,bir qator orden va medallar bilan taqdirlandi. Jizzax viloyati paxta tozalash korxonalarini tashkil qilish, uning rivojiga munosib hissa qo‘shgan fidoyi insonlar orasida Rahmat Muhammadiyevning ham munosib o‘rni bor. U Samarkand davlat universiteti biologiya-tuproqshunoslik fakultetini a’lo baholar bilan tugatib, o‘zining dastlabki ish faoliyatini Jizzax shahar paxta tozalash korxonasida boshladi. U urug‘chilik laboratoriyasi mudiri, so‘ngra korxona direktori lavozimiga ishga tayinlandi. Rahmat Muhammadiyev 1981 yilgacha „Golodnostepstroy" boshqarmasiga qarashli 45-kurilish trestiga boshchilik qilib, yangi yerlarni o‘zlashtirish, turar joy, madaniy-maishiy binolar qurib ishga tushirishda barakali mehnat qildi.

U 1987 yili O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi vazirligiga qarashlikurilish boshqarmasiga rahbar etib tayinlanib, unga to 1995yili - nafaqaga chiqqunga qadar boshchilik qilib, o‘zining mexnati bilan el-yurt hurmatiga sazovor bo‘ldi. Rahmat Muhammadiyevning barakali mehnati xukumat tomonidan “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan quruvchi" faxriy unvoni, „Shuxrat" medali va qator faxriy yorliqlar bilan taqlirlandi. Qayum Shodiyev esa Jizzax paxta tayyorlash va tozalash korxonasida 10 yil rahbarlik qilib, korxonani respublikadagi dongdor korxonalardan biriga aylantirishga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi. Rahbarlikni ilmiy tadqiqotchilik ishlari bilan qo‘shib olib borib, texnika fanlari bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Paxta tozalash korxonalarida paxtani qayta ishlash sohasida boy tajriba va malaka orttirgan Qayum Shodiyev 1960-1983 yillarda Samarqand, Sirdaryo, Jizzax viloyatlarida paxta tayyorlash va uni qayta ishlash boshqarmasiga rahbarlik qilib, paxta xom ashyosini o‘z vaqtida nes-nobud qilmasdan qayta ishlash uchun ko‘plab punktlar va korxonalar tashkil etdi. Paxta tozalash korxonalariga paxtani qop-qanorsiz tashish, xom ashyoni markazlashgan tartibda kuritish, mexanizatsiyalash usulida paxtani bunkerlarga taxlashni amalga oshirib, millionlab mablaglarni tejash orqali paxta tannarxini arzonlashtirishga, korxonalar iqtisodiyotini mustahkamlashga munosib hissa qo‘shdi. Paxta tozalash korxonalari qoshida turar joy binolari, bolalar bogcha-yaslilari, shifoxonalar qurish, obodonlashtirish uchun mablag topishga kuch g‘ayratini ayamadi. Masalan, Jizzax shahridagi paxta tozalash korxonasi ishchi-xizmatchilari uchun uy joy, sauna, zamonaviy milliy hammom, bolalar bogchasi, tibbiy maskanlar qurish uchun yelib-yugurdi. Qayum Shodiyev mehnatlari munosib taqdirlanib, ordenlar, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan injener" faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

1980 yillarga kelib aholining xalq iste’moli mollariga bo‘lgan talabini qardosh respublikalar sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan yetarli darajada ta’minlashda tanqislik sezilib qolganligi tufayli bunday korxonalarni respublikamizning o‘zida ham barpo etishga extiyoj sezildi. Natijada Jizzaxda ham plastmassa mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalar, ustki trikotaj buyumlari, paypoq va ip yigiruv fabrikalari qurilishi uchun mablag ajratildi. Ular qurildi va ishga tushirildi ham. Ammo bu korxonalardagi ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi uskunalari ko‘p o‘tmay o‘zining eskirib qolganligini namoyon qildi. Korxonada eskirgan texnologiya asosida ishlab chiqarilgan, mahsulotlar sifati pastligi jihatidan aholi tomonidan xarid qilinmaganligi sababli tayyor mollar omborlarda to‘planib qoldi. Sanoat korxonalarida ishlab chiqilgan mahsulot jahon bozorida o‘z o‘rnini topmadi. Ma’muriy buyruqbozlik tizimi, ishlab chiqarishga partiyaviy rahbarlik va uning mafkuraviylashtirilishi iqtisodiyotni yuksaltirish borasidagi urinishlarni yo‘qqa chiqardi. Ijtimoiy ehtiyojlarga mablag ajratishda qoldiq tamoyili va taqsimotda tekischilik siyosati hukmronlik qildi. Buyruqbozlik boshqaruv tizimi sansalorlik, qog‘ozbozlik, majlisbozlik, iqtisodiyotning o‘z qonunlari va vositalari asosida rivojlanishiga to‘sqinlik qildi. Korxonalarda xizmat qilayotgan xodimlarning beparvoligi qilinayotgan xarajatlarni olingan daromadlar bilan qoplanmasligi korxonalarni kasodga uchrashiga sabab bo‘lgan edi. Jizzax shahrida tashkil topgan korxonalar xom ashyo yoki yarim tayyor mahsulot turlarini tayyorlashga ixtisoslashtirilgan edi. Shahar sanoatida xizmat qilayotgan ishchi-xizmatchilarning moddiy, ma’naviy manfaati, shaxsiy qiziqishi, tashabbuskorligiga yetarli e’tibor berilmadi, bu holat xodimlarda loqaydlikni keltirib chiqardi. [3]

[3] H Haydarov. Jizzax tarixi “o’qituvchi” nashtiyoti Toshkent 2009yil 151 154 betlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.Haydarov.Jizzax viloyati tarixi.Toshkent-“Mehnat”-1996 yil.
2. A.Toshkentboev.O‘.Nosirov. Jizzax viloyati. Toshkent—“O‘zbekiston”-1996 yil.
3. H.Haydarov. Jizzax tarixi. Toshkent-“O‘qituvchi”-2009yil.
4. H.Haydarov.O‘bekiston shaharlari Jizzax-“ O‘qituvchi”-1990yil.
5. Q.Hakimov. Jizzax viloyati toponimlari.Jizzax-“Sangzor nashriyoti”-2014 yil.